JIZZAX VILOYATI G’ALLAOROL TUMANI HOKIMI
QARORI

2022 - yil 8 - aprel 153-3-45-Q/22 G‘allaorol tumani hokimligi

Tuman hududidagi avtomobil yo‘llari yoqasida joylashgan barcha umum ta’lim maktablari xamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldiga yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g’risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llarida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 342-sonli qarori ijrosini ta’minlan maqsadida hamda G‘allaorol tuman IIB tomonidan 2022 yil 24 fevral kuni tuman xokimligiga taqdim etilgan 37/392-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati” to‘g‘risidagi Qonunning 6-moddasiga asosan

Q a r o r q i l a m a n

1. G‘allaorol tuman IIB tomonidan 2022 yil 24 fevral kuni tuman xokimligiga taqdim etilgan 37/392-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hududidagi avtomobil yo‘llari yoqasida joylashgan barcha umumta’lim maktablari xamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldiga “sun’iy yo‘l notekisligi” yo‘l belgilari, ushbu xududda maktab joylashganligini bildiruvchi yo‘l belgilari, yuqori tezlikni cheklovchi “30” yo‘l belgilari o‘rnatilsin va “sun’iy yo‘l notekisligi” qurilishiga ruxsat berilsin.

3. Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (I.Raxmanov) va tuman obodonlashtirish boshqarmasi (X.Mamaraximov)larga qisqa muddat ichida mazkur qarorning 2-bandida ko‘rsatilgan ishlarni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman IIB YXX bo‘limi (E.Mamasharipov)ga yo‘l belgilari o‘rnatilgan yo‘l qismlarida yo‘l xarakati qoidalarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik borasida kuchaytirilgan tartibda nazorat olib borilishini ta’minlasin.

5. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Mamarajabov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **Ж.Оқбоев**